O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2022 - yil 23 - iyun 342-8-117-Q/22 Termiz tuman hokimligi

Termiz tumanida tabiiy pichanzorlar va yaylovlardan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi 12, 44-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-avgustdagi “Yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishda eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan foydalanish normalarini belgilash, yaylovlar almashinishini ta’minlash va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 689-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Quyidagilar:

tuman hududida pichan o‘rish, tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning me’yorlari, muddatlari va ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdorlari 1-ilovaga;

chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me’yorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (M.Bobomurodov), qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limi (B.Begimqulov), tuman ekologiya va atrof-muhitni muhofaaza qilish sohasidagi nazorat bo‘limi(R.Gapparov)lar bilan birgalikda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni

qonunchilik talablari asosida amalga oshirilishini ta’minlasinlar.

3. Ushbu qaror “Janub Quyoshi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo`riyev va tuman hokimining o‘rinbosari M.Bobomurodov zimmalariga yuklatilsin.

Termiz tuman hokimi  **Urinov.SH.B**

Termiz tuman hokimining
2022 yil 23 iyundagi
342-8-117-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida tabiiy pichanzorlar va yaylovlarda chorva mollarini o‘tlatishning me’yorlari, muddatlari va o‘tlatishga ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov

MIQDORLARI

T/r	Chorva mol turi	O‘lchov birligi *(bosh)*	O‘tlatishning me’yorlari *(talab etiladigan maydon, ga)*	Muddati	Ruxsatnoma berilganligi uchun undiriladigan to‘lov miqdori *(bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqib)* % da
1.	6 oydan katta qo‘ylar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
2.	6 oygacha bo‘lgan yosh qo‘zilar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
3.	6 oydan katta echkilar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
4.	6 oygacha bo‘lgan uloqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.1 %
5.	Katta yoshdagi qoramollar	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
6.	Ikki yoshgacha bo‘lgan buzoqlar	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %
7.	Katta yoshdagi otlar	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
8.	Ikki yoshgacha bo‘lgan toylar	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %
9.	Katta yoshdagi eshaklar *(uy hayvoni)*	bosh	1 ga	1 yil	0.3 %
10.	Ikki yoshgacha bo‘lgan xo‘tiklar *(uy hayvoni)*	bosh	1 ga	1 yil	0.2 %

Termiz tuman hokimining
2022 yil 23 iyundagi
342-8-117-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashning me’yorlari

Foydalanish muddati	**Pichan o‘rish miqdori hajmlari** *(kg, tonna, kubametr)*	**Ajratiladigan maydon, ga**	**Ruxsatnoma berganlik uchun undiriladigan to‘lov miqdori**
Bir yil (mavsum davrida)	kg	1 ga	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 % miqdorida